

QADIMGI MISR MADANIYATI

ДРЕВНЯЯ ЕГИПЕТСКАЯ КУЛЬТУРА

ANCIENT EGYPTIAN CULTURE

Zaynobidinova Muslimaxon Xafizullo qizi

*Andijon davlat pedagogika institute Ijtimoiy-gumanitar fanlar va
san'at fakulteti tarix yo'nalishi 101-guruh talabasi.*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Misrning qadimgi davridan hozirgi davrgacha bo'lgan tarixi yoritilgan.*

***Аннотация:** В данной статье рассматривается история Египта с древнейших времен до наших дней.*

***Abstract:** This article covers the history of Egypt from ancient times to the present.*

***Kalit so'zlar:** piramida sarkofag, papirus, sfinks, iyeroglif, fir'avn.*

***Ключевые слова:** пирамида, саркофаг, папирус, сфинкс, иероглиф, фараон.*

***Key words:** pyramid, sarcophagus, papyrus, sphinx, hieroglyph, pharaoh.*

KIRISH

Qadimgi Misr tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi .Misr o'ziga xos etnografik hudud hisoblanib, undan Nil daryosi oqib o'tadi Misr tarixi tarixchi arxeologlar tomonidan uzoq yillar davomida o'rganilgan. Misr zamini mis, oltin, qo'rg'oshin va yarim qimmatbaho ma'danlariga boy maskan hisoblangan. Misni asosan Sinay yarim orolidan qazib olganlar va tosh bilan birga zirotchilik hamda chorvachilikda keng qo'llashgan. Ohaktosh, granit va kvarts Misrda ko'p uchragan. Ma'danga boy rudalar Barka tog'idan qazib olingan. Misr iqlimi mo'tadil bo'lib, bu jihatdan u Yaqin Sharq iqlimiga yaqin. Nil vodiysi qamish, papirus va turli xil o't-o'lanlar bilan qoplangan. Qadimgi Misr tarixi uzoq o'tmishga borib taqalgani sababli uning rivojlanishi 5 davrga bo'lib o'rganiladi.

ASOSIY QISM

Bular: Ilk podsholik (mil.avv. 3100-2648y.y), Qadimgi podsholik (mil.avv. 2648-2250y.y), O'rta podsholik (mil.avv. 2040-1783y.y), Yangi podsholik (mil.avv. 1550-1069y.y), So'ngi podsholik (mil.avv. 664-332y.y). ga bo'lib o'rganiladi. Bu davr oralig'ida Misr 3 ta o'tish davrini boshdan kechirdi. Ammo uning xronologik chegaralari haqida hozirga qadar munozaralar davom etmoqda.

Qadimgi Misr tarixida ilk bor sinfiy tabaqalanish mil.avv. v ming yillikda Nil vohasini o'zlashtirilishi natijasida yuzaga keladi. Bu davr Misr tarixida Ilk podsholik davri hisoblanadi. Bu davrda Misr shohlari mamlakar ichkarisida juda katta nufuzga ega bo'ladi. Tashqi siyosatda ham faol harakat boshlaganlar. "Sulolagacha bo'lgan davr" deb yuritiluvchi mazkur davr Misr tarixida ikkiga bo'linib, ya'ni "Amrat" (Negada I) va "Gerzey" (Negada II) madaniyatlari sifatida o'rganiladi. Bu kabi madaniyatlar Misrda irrigatsiyaning o'sishi va chorvachilikning rivojlanishini ko'rsatib beradi. Bu davrda Misr madaniyati ham o'ziga xos tarzda rivojlangan. Mil.avv IV ming yillikda Qadimgi Misr aholisi Nil qirg'oqlarini o'zlashtirganlar. Izlanishlar davomida ular qaysi tilda

so'zlashganliklari hozirga qadar ham aniqlanmagan. G'arb mutaxassislarining fikricha qadimgi misrliklarning ilk so'zlashgan tillari afro-osiyo tiliga (yoki chad xalqlari tiliga) yaqinligi ta'kidlanib o'tiladi. Keyinchalik Misrga boshqa etnoslarning kirib kelishi natijasida til yanada boyidi. Ilk podsholik davriga qadar misrliklar iyeroglif yozuvini ixtiro qilganlar. Har bir iyeroglif ma'lum bir ma'noni anglatgan.

Misr yozuvi—mil.avv.4 ming yillikdan to milodiy 3-4 asrgacha qadimgi misr tili uchun xizmat qillgan so'z bo'g'inli yozuv tizimi. Uning dastlabki asosini 500 dan ortiq iyerogliflar tashkil etgan bo'lib ular tasavvuriy holda muayyan tushunchalar bilan bog'lanib tushunchalarni so'zda ifodalagan. Bu davrdagi yozuvda asosan undoshlar ifodalanib unlilar ixtiyoriy qo'llangan. Keyinchalik mil.avv.2 ming yillikdan boshlab Misr yozuvining Iyeratik(muqaddas) turi yaratildi. Unda iyerogliflardan ham ma'lum darajada foydalanilgan bo'lsada so'zlarni yozishda fonetik ma'no va o'zgarishlarga e'tibor beriladi. Mil.avv.7 asrdan boshlab Iyeratik yozuv asosida Misr yozuvining yangi tez yozuv usuli—Demotika(xalqona tez yozuv) ishlab chiqildi. Demokratik yozuvda belgilar anchagina soddalashtirilib bir necha undoshni ifodalovchi belgilar kamaytirilib ularning o'rnida undoshni ifodalaydigan belgilar qo'llana boshlagan. Demotik Misr yozuvi milodiy 3-4 asrlargacha qo'llanib kelgan.[1]

Iyerogliflar soni masalasida hozirga qadar taniqli olimlar munozarali fikrlar bildirmoqda. Urakovning fikricha: Misr iyerogliflarining soni 750 ta ga yaqinligi ta'kidlanadi. O'quvchilar asosan iyerogliflarni sopol sathiga va papiruslarga yozib o'rganishgan. Papirus (qadimgi lotincha: papyrus) yoki biblios (lot. biblos)— yozuv materiali. Qadimgi davrlarda Misrda keyinroq esa butun qadimgi dunyoda keng tarqalgan. Papirusni ishlab chiqarish uchun shu nomdagi suv-botqoq o'simlik (Cyperus papayrus) ishlatilgan. Qadimgi O'rtayer dengizi hududida papirus o'simligi Nil deltasi va Fayum vohasida, Sitsiliyada, Falastin va Suriyada ham o'stirilgan.

Misr yozuvida narsa va hodisalar turli rasm va belgilar bilan ifodalangan. Masalan: suv soʻzi uch qator toʻlqinsimon chiziq, togʻ soʻzi ost tomoni tekis, yuqori tomoni qabariq, oʻrtasi botiq shakl bilan ifoda etilgan. Qoʻlida oʻq-yoy ushlab turgan odam rasmi jangchi, oʻroq ushlab turgan kishi tasviri esa oʻrmoq degan maʼnoni bildirgan. Keyinchalik belgi rasm shaklidagi yozuv takomillashib soddalashtirilgan. Qadimgi podsholik davrida misrliklar yozuvida 24 ta asosiy tovushni bildiradigan alifbo tizimi paydo boʻlgan. Misrliklar papirus barglaridan varaqlar tayyorlab varaqlarni bir-biriga ulab uzunligi 45 metrgacha papirus oʻramlari tayyorlaganlar. papiruslar qamishdan tayyorlangan yozuv asbobi bilan yozilgan.

Misr haqida gapirar ekanmiz undagi boy qadimiy yodgorliklar qatoriga albatta ehromlarni ham kiritamiz. Qadimgi Misr arxitekturasini Gizadagi mahobatli ehromlarsiz tasavvur qilish qiyin. Ehromlarning dastlabkisi qadimgi podsholik davrida Sakkara shahrida firʻavn Joser tomonidan bunyod etiladi. Uning arxitektori sifatida Imxoteb tilga olinadi. Eng mashhur ehrom Xufu (Xeops)ga tegishli boʻlib balandligi 146 metrni tashkil etadi. Unda ogʻirligi 2.5 tonnali 2 milliondan ortiq tosh boʻlaklari ishlatilgan. Shuningdek Giza shahridagi Xafra (Xefren), Menkaura (Mikerin) ehromlari ham juda mashhur.

Misr ehromlari qadimiy inshootlar boʻlishi bilan birga sirli va moʻjizaviydir. Misrda hammasi bʻlib 118 ta piramida, ehromlar bor. Quyida ushbu dunyoning yetti moʻjizalaridan biri hisoblangan Misr ehromlarining baʼzilari bilan tanishib chiqamiz.

1. Buyuk Xeops ehromi. Ushbu ehrom barcha Misr ehromlarining yuzi hisoblanadi. Mazkur piramidaning qurilishiga 20 yil ketadi va mil. avv. 2560 yilda qurib bitkazildi.

2. Balandligi boʻyicha ikkinchi oʻrinda turuvchi markur inshoot Xeopsning oʻgʻli Xefrenning ehromi hisoblanadi. U 10 metr balandlikdagi tepalikda

qurilgan. Uning balandligi 136,4 metr ga teng. Xefer ehromining yaqinida Buyuk Sfinks joylashgan.

3. Uchinchi buyuk piramida-Mikerina ehromidir. U avvalgilaridan kichikroq bo'lib balandligi 66 metr asosining uzunligi 108.4 metrga teng.

Mazkur piramidalar qatoriga Qohira shahridagi Giza platosida joylashgan piramida ham kiradi. Piramidalarning qurilishi haqida aniq vataxminiy vaqtlar bor. Giza-mil.avv.2589-2566 yillar oralig'ida fir'avn Xufu tomonidan qurilgan. Fir'avn Xafra davrida mil.avv.2558-2532 yillarda ham Giza yaqinida maqbara bunyod etilgan. Bundan tashqari Amenemhat I, Senusert I lar davrida ham shu kabi inshootlar qurilganligi haqida ma'lumotlar bor.

Misr piramidalari qurilishi to'g'risida hozirgi kunda ham bir qancha jumboqli faktlar mavjud. Misol uchun: 1. Ko'pchilik odamlar piramidalar ichiga fir'avnlarni ko'milgan deb o'ylaydi, ammo aslida fir'avnlarning dahmalari ehromning ichida emas undan naribroqda shohlar vodiysida joylashgan. 2. Ayrim nemis olimlari Misr ehromlarini kuchli energiya manbalari deb hisoblashadi. 3. Bugungi kunda ehromlarning yoshi 4ming yildan 10 ming yilgacha deb hisoblashadi. Bundan tashqari ehromlar ehromlarning devorlarida ularning qurilishlari aks ettirilgan sahnalar tasvirlangan. Agar ushbu faktga asoslansak ehromlar qullar tomonidan emas yollanma ishchilar tomonidan qurilganligiga guvoh bo'lamiz. Qohiradagi Sharq arxeologiyasi Fransuz institute va Anglyadagi Liverpul universiteti olimlari qadimiy misrliklar ehromlarni qurishda foydalanganlari taxmin qilinayotgan qurilmani topishdi. Arxeologlar misrliklar alebastr olgan, Luksor yaqinidagi karerlardan birida katta yuklarni ko'tarish uchun qo'llangan pandus izlarini topishgan. Topilmalarning taxminiy yoshi 4.5 ming yil baholangan. [2]. Qadimgi Misr haqida so'z yuritish ekanmiz uning madaniyatiga ham alohida to'xtalib o'tish joizdir. Negaki Misr tarixi va madaniyati haqida Gerodot asarlari saqlanib qolgan. Gerodotning eng yirik asari Qadimgi Misrga bag'ishlangan. Gerodot Qadimgi Misr tilini bilmagan, shuning uchun ba'zi ma'lumotlarni tarixdan bexabar kishilardan olishga majbur

bo'lgan. Uning qadimgi piramidalar mamalakatiga qiziqib qolganligi uning zo'r tarixiy adabiy mahorati va tarixiy ma'lumotlariga tanqidiy ko'z bilan qarashga uringanligi tufayli Misr tarixini yoritishda juda ko'p keladi. Gerodotning ko'p ma'lumotlarini Qadimgi Misr manbalari tasdiqlaydi. Uning tarixiy kitoblarida keltirilgan ko'pdan-ko'p ma'lumotlar mil.avv. I ming yillikda Misr badiiy adabiyotida juda katta o'rin tutgan. Gerodot Qadimgi Misr tarixini mumkin qadar ko'proq berishga harakat qilgan.

XULOSA

Men Qadimgi Misr tarixini yoritish ekanman unda ko'plab izlanishlar, tarixiy va afsonaviy haqiqatlar, noyob topilmalarni asoslab berishga harakat qildim. Misrda qadimda qaysi sulola hkm surganligi, ularning boshqaruvi to'g'risida ham bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Shuni ham aytish kerakki, piramidalar qurilishi haqidagi faktlar ushbu maqolada asosiy ahamiyatga ega ma'lumot bo'lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

- [1]. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. Birinchi jild. Toshkent, (2000-2005)
“http://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Misr_yozuvi&oldid=2848611”
- [2]. „p.flor.1.93.dupl=HVG P.Flor.1 93” (<http://papyri.info/ddbdp/p.flor;>)
1. Ergashev. "Qadimgi sivilizatsiyalar" Toshkent 2016.
2. D. Urafov, R. Tursunov "Jahon tarix 1 tom 1-jild" Toshkent "innovatsiya ziyo" 2020.
3. R. Rajabov. Qadimgi dunyo tarixi "fan va texnologiya" 2009
4. Elaine A. Evans. "Papyrus A Blessing Upon Pharaoh Occasional Paper" University of Tennessee 2008.
5. Ritter, Michael. "Dating the Pyramids" 2003.